

Ta'lim jarayonini isloh qilishda “Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi” ning ahamiyati yoki “Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi” amaliyotda

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim sohasida, xususan, boshlang'ich ta'lim sohasida tubdan islohotlar amalga oshirildi. Boshlang'ich ta'limning mazmuni yangilandi, yangi ishlab chiqilgan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari asosida esa zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan darsliklar yaratildi. Bugungi kunda zamonaviy pedagoglar tomonidan intensiv usullar – interaktiv metod va didaktik o'yinlar dars jarayonida tatbiq qilinmoqda. Shu bilan birga boshlang'ich sinf davridanoq o'quvchilarga chet tillarini o'rgatib borish ham keng yo'lga qo'yildi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zlangan vazifalarni ado etish uchun ta'lim jarayonini ilmiy asoslangan g'oyalar, ya'ni ma'lum bir konsepsiya asosida tashkil qilinishi boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi va kutilgan natijalarni beradi. Shunga muvofiq Xalq ta'limi vazirligining 2014 yil yanvar oyida tasdiqlagan “Xalq ta'limi tizimini 2014-2016 yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan istiqbol rejasining 7-bandida boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan mukammal “Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi” ni yaratish vazifasi belgilab berildi. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti olimlari, Respublika ta'lim markazining xodimlari, malakali mutaxassislar hamkorligida “Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi va 2014-2015-o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy qilindi. Shu o'rinda Konsepsiya nima, u o'zida nimalarni mujassamlashtiradi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Konsepsiya – narsa va hodisalarga nisbatan qarash hamda yetakchi g'oyalar yig'indisi, bilish va amaliy faoliyat xarakterini belgilaydi, biror nazariyaning asosiy g'oyasi. Konsepsiya – muayyan sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, dall va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar.

Ta'lim – o'quvchilarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Boshlang'ich ta'lim – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim 1 – 4 – sinflarni qamrab oladi va ta'lim oluvchilarga ta'lim berish, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash, tafakkurini o'stirishning dastlabki bosqichi.

Boshlang'ich ta'limning asosini shaxs kamoloti, uning barkamol inson bo'lib yatishishi, rivojlanishi haqidagi g'oyalar belgilaydi. Boshlang'ich ta'lim **shaxsga yo'naltirilganda** va **kompetensiyaviy yondashuvga asoslangandagina** ta'lim taraqqiy etadi, rivojlanadi, shu bilan birga o'quvchilarni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi boshlang'ich ta'limning pedagogik-psixologik asoslarini hamda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, sifat-samaradorligini oshirish yo'llarini o'zida mujassamlashtirgan:

1. Boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy

fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari:

- har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga sharoit yaratish;
- iqtidorli o'quvchilarning intellektual potentsiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;
- ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish;
- jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatishdan iborat.

2. **Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari.**

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirish talab qilinmoqda. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim oldiga bir qator vazifalar qo'yilmoqda. Bular:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish;

Boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va bu sohada ilg'or tajribalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilihi boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

3. **Boshlang'ich ta'lim mazmuni.**

Ta'limning mazmuni – o'quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi. (Pedagogik atamalar lug'ati.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Boshlang'ich ta'lim mazmunida bolalarning tasavvurini va ijodiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan o'quv materiallari ajratilishi lozim. Ta'lim mazmunida o'qish, yozish, hisoblash, tabiatga oid ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan bir qatorda o'quvchilarni kompleks rivojlantirishga sos bo'ladigan tarbiya elementlari ham o'z ifodasini topmog'i lozim. Boshlang'ich ta'limning mazmuni bilish jarayonining yaxlitligi va maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlashi kerak. Boshlang'ich ta'lim mazmunida o'quvchilarga jismoniy va nafosat meyyorlarini singdirish, ularning go'zallikka bo'lgan munosabatini va intilishini shakllantiradi. Bu esa milliy ongni rivojlantirishning asosiy omilidir.

Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarining tayanch mazmuni har bir fandan ishlab chiqiladigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarida belgilab beriladi.

4. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Davlat ta'lim standarti – ta'limning zarur, yetarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir.

Boshlang'ich ta'lim DTS – boshlang'ich ta'lim nihoyasida boshlang'ich ta'limning mazmuni bo'yicha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan BKM larning darajasini belgilab beruvchi davlat talablarining davlat tomonidan tasdiqlangan modeli.

O'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standarti ikki qismdan iborat bo'ladi:

- 1-4-sinflarda berilishi zarur bo'lgan majburiy minimal ta'lim mazmuni;
- Boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar.

Boshlang'ich ta'limning tegishli o'quv fanidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartida belgilab berilgan majburiy minimal ta'lim mazmuni – shu fandan o'quvchilarga beriladigan minimal o'quv materiallari bo'lib, o'uv dasturini tuzishda ular tayanch qilib olinadi.

5. O'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash.

Ta'lim jarayonida darslik eng muhim o'rin tutadi.

Darslik – muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy – g'oyaviy, ilmiy – uslubiy saviyada yozilgan o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi.

Zamon talablariga mos zamonaviy darslarni tashkil qilishda metodik qo'llanmalar muhim ahamiyatga ega.

Metodik qo'llanma – o'qituvchilarga mo'ljallangan maxsus kitob.

Metodik qo'llanma – professor-o'qituvchilar va boshqa bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

5. Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish.

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “... **ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yara-tish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash**” masalasi alohida ta'kidlanadi.

“Innovatsiya” inglizcha “innovatsion” so'zidan olingan bo'lib, yangilik, yangilik kiritish demakdir. Innovatsiya-yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi (talaba) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

“Interfaol” inglizcha “interactive” so'zidan olingan bo'lib, “inter” – o'zaro, birgalikda, “act” – harakat degan ma'nolarni anglatadi. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatiga asoslanadi.

“Texnologiya” – yunoncha, “tehne” – sanʼat, mahorat, “logos” – fan degan soʻzlardan olingan. **Texnologiya** – bu maʼlum bir muayyan maqsadga yoki maqsadlar tizimiga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar ketma – ketligidan iborat boʻlgan yaratuvchanlik faoliyati.

Pedagogik texnologiya tushunchasi inglizcha “an educational technology” soʻzidan olingan boʻlib, “taʼlim texnologiyasi” degan maʼnoni anglatadi.

Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning oʻzaro taʼsirini inobatga olgan holda taʼlim shakllarini optimallashtirish vazifasini qoʻyuvchi oʻqitish va bilim oʻzlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish va qoʻllashning tizimli metodi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida bilim oʻzlashtirishga boʻlgan ishtiyoqni shakllantirish va rivojlantirishda dars jarayonida tashkil qilinadigan didaktik oʻyinlar katta va salmoqli oʻrin egallaydi. Dars jarayonida tashkil etiladigan oʻyinlardan muayyan taʼlimiy maqsad nazarda tutiladi. Oʻyin – boshlangʻich sinf oʻquvchilarida maʼlum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – oʻqituvchilar, tarbiyachilar, ota – onalar tomonidan qoʻllaniladigan usul.

Kadrlar tayorlash milliy dasturining asosiy talablaridan yana biri axborot texnologiyalarini taʼlim jarayoniga keng tatbiq etishdir. Hozirgi kunda dars jarayonini multimedia asosida, slaydlar taqdimoti bilan tashkil qilish davr talabiga aylamoqda.

Multimedia atamasi “koʻp tarmoqli muhit” maʼnolarini bildiradi. Multimedia turli shakldagi maʼlumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasidir.

7. **Oʻquvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.**

Nazorat – oʻqitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, taʼlim oluvchilarning bilim, koʻnikma, malakalari hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni. **Nazorat** – taʼlim oluvchilarning BKM larini aniqlash jarayoni.

Baholash tizimi – davlat taʼlim standarti boʻyicha egallanishi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarni oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilishini aniqlaydigan mezon. **Baholash** – oldindan belgilangan mezonlarga muvofiq oʻquv maqsadlariga erishilganlik darajasini aniqlashdir.

Reyting – bu inglizcha soʻz boʻlib, uning maʼnosi “individual koeffisient” yoki “baho” demakdir.

Reyting tizimi – bu oʻquvchilarni faol oʻquv faoliyatiga ragʻbatlantiruvchi va muhim asosli kuchga ega boʻlgan oʻquvchilar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi.

8. **Oʻquvchilarning iqtidorlik darajalarini aniqlash va iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlash.**

Iqtidor – oʻquvchining kuch-qudrati yoki biror muammoni hal qilishga qodirligining ifodasi.

Iqtidorlilik – insonga yanada yuksalish, faoliyatning bir yoki bir necha sohalari boʻyicha boshqalarga qaraganda yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi tizimli, rivojlanuvchan ruhiy xususiyat.

Maktab psixologlari tegishli oʻqituvchi bilan hamkorlikda tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda har bir sinfda oʻquvchilarning iqtidorlik darajalarini aniqlash boʻyicha tashxislashni amalga oshiradilar. Iqtidorli deb topilgan oʻquvchilar oʻz intellektual imkoniyatlarini muntazam oshirib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Iqtidorli oʻquvchilar bilan qoʻshimcha fan toʻgaraklari olib boriladi. Iqtidorli oʻquvchilarga asosiy darslikdan tashqari qoʻshimcha adabiyotlar bilan shugʻullanish yoʻlga qoʻyiladi.

9. **Ota – onalar bilan hamkorlikni tashkil etish.**

Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning darslarni puxta o'zlashtirishlarida ota-onalarning o'zni muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish lozim. DTS da ko'zlangan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni ota-onalar ham obilishlari va shu asosda farzandlariga ularni egallashda ko'maklashishlari lozim. Buning uchun maktab ma'muriyati bilan ota-onalar o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi kerak. Farzandining ta'lim olishi, tarbiyasiga befarq bo'lgan ota-onalarga esa mahalla qo'mitasi tegishli choralarni qo'llashi mumkin.

10. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining salomatligi.

Xalqimizda bejizga "Salomatlik – tuman boylik" deyilmagan. O'quvchilarning salomatligi ta'limni sifatli o'zlashtirilishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har bir pedagog bilim o'zlashtirish, tarbiyalash jarayonlarida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik va individual xususiyatlariga alohida ahamiyat berishlari lozim. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni o'z xoxishlari va qiziqishlari bilan mustaqil va ijodiy bilim egallashlariga zamin yaratadi.

11. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara olishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. Zamonaviy o'qituvchining imidji uning kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilaydi. O'qituvchining imidji – uning hatti-harakatlari, tashqi qiyofasi, odatlari, gapirish maromi, mentaliteti asosida o'quvchilar, kasbdoshlari, umuman atrofida qilgan hosil qilgan tasavvurlari dmakdir.

12. Konsepsiyani hayotga tatbiq etish chora-tadbirlari.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilandi va amalga oshiriladi:

- boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish;
- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmini tayyorlash;
- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish;
- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari loyihalarini o'quv dasturlari bilan birgalikda tajriba-sinovdan o'tkazish, tajriba-sinov natijalari asosida DTS va o'quv dasturlarini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etish;
- darsliklarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va takomillashgan o'quv dasturlariga muvofiqlashtirish;
- ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish;
- har bir o'quv fanidan o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning intellektual salohiyatlarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati, kiyinish madaniyati va imidjiga qo'yiladigan talablar majmuini ishlab chiqish.

Xulosa shuki, amaliyotga joriy qilingan mazkur Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning sifati va samaradorligini ta'minlashning ilmiy asoslangan g'oyalari asosida amalga oshirilishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Konsepsiyada ilgari surilgan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning nazariy-amaliy g'oyalari pedagogika fanining yutuqlariga tayangan holda belgilab berilgan. Mazkur Konsepsiyada belgilangan vazifalarni ado etish, aniqlangan maqsadlardan kutilgan natijalarni olish, ko'rsatib o'tilgan tajribalarni o'zlashtirish, ilmiy asoslangan g'oyalarni ta'lim jarayonida tatbiq etish bugungi kun o'qituvchisidan yuksak mahorat va mas'uliyatni talab etadi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Zamonaviy o'qituvchi – kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir".

Matluba Shodiyeva

Qashqadaryo VXTXQTMOI

Maktabgacha, boshlang'ich va
maxsus ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi